# YANGILANAYOTGAN O`ZBEKISTONDAGI MUZEYLAR TARAQQIYOTI

**Musayeva Dilshoda Abdurahim qizi**
Namangan davlat universiteti 3-bosqich talabasi
**Dehqonov Narimon Burhonjonovich**
Namangan davlat universiteti birinchi Prorektori, siyosiy fanlar doktori

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mustaqillik va so`nggi yillarda madaniy meros obyektlariga qaratilayotgan e`tibor, xususan muzeylar taraqqiyoti, soha rivoji uchun olib borilayotgan bunyodkorlik ishlari, xalqaro darajadagi ko`rgazma va tanlovlarda erishayotgan ulkan natijalari va respublikamiz hududlarida joylashgan, ayni paytda faoliyat olib borayotgan muzeylar haqida so`z boradi.

**Kalit so`zlar:** Memorial, eksponat, ilmiy tafakkur, motivatsiya, ekspozitsiya, svilizatsiya, arxeologiya, katalog.

Istiqlolning baxt-iqbolli yillarida ko`plab sohalar qatori muzeylarga ham e'tibor yanada ko`paydi. Raqamlarga e`tabor qaratadigan bo`lsak, xususan keyingi 10 yil ichida Davlat qaramog`idagi muzeylar soni 140 tani tashkil etadi. Shulardan tarix muzeylari 75 ta, O`lkashunoslik muzeylari 23 ta, Badiiy san`at koshonalari 10 ta, memorial muassasa 20 ta, adabiyot muzeylari, 8 ta, tabiat muzeylari 4 tani tashkil etadi. Ayni damda bularda 1 million 600 mingdan ortiq eksponatlar mavjud.[1]

Dunyoni go`zallik qutqaradi deyishgani ayni haqiqat.Insonlar doimo go`zallikka intilib yashaydi, go`zallik his qilmasdan undan bahra olmasdan yashay olmaydilar.

Jahonning ko`plab qadimiy xalqlari qatorida o`zbek xalqining ham o`ziga xos va mos o`rni, mavqeyi bor.Qadim davrlardan buyon xalq ruhiyati, turmush sharoitlarini o`zida aks ettiruvchi amaliy san`at asarlarini yaratib kelgan. Tabiiyki, moddiy madaniyat mahsuli bo`lgan xalq amaliy san`at asarlari ijtimoiy hayotning bir bosqichidan ikkinchisiga meros bo`lib o`tib, avlodlarning beqiyos madaniy boyligiga aylanib boraveradi. Ulga`yib borayotgan yosh avlod, nafaqat yosh avlod vakillari, balki butun jamiyatning ma`naviy, axloqiy kamoloti, dunyoqarashi, ruhiy va ma`naviy yetukligini oshirishda muzeylar ham kata ahamiyat kasb etadi.Shu kabi muhim jihatlarni inobatga olgan holda, 2002-yil iyun oyida qabul qilingan Respublika Oliy va o`rta-maxsus, kasb-hunar vas umumiy o`rta ta`lim muassasalari o`quvchi-yoshlari, talabalari o`rtasida ma`naviy-ma`rifiy ishlarni kuchaytirish to`g`risidagi qo`shimcha buyruqlari va shu asosda viloyat hokimligining qaror, tadbir-rejalari va ko`rsatmalari muzeylar va o`quv yurtlari o`rtasidagi mustahkam aloqa o`rnatish hamda madaniy-ma`rifiy ishlarini hamkorlikda olib borishga keng imkoniyatlar yaratib berdi.

1996-yil 18-oktabrda Toshkentda ochilgan Temuriylar tarixi Davlat muzeyi O`zbekistonda amalga oshirilayotgan ma`rifiy va ma`naviy ishlar borasida yirik tarixiy va madaniy yodgorlik, ilmiy tafakkur markazi bo`lib qoldi. Muzey eksponatlari juda kata tarixiy qiymatga ega bo`lib, Temuriylar lashkarboshisi va oddiy jangchilarining kiyim-boshlari, musiqa asboblari, o`sha davrga xos jihozlar, Amir Temur, Bobur qo`lyozmalari, Ulug`bekning astranomik qurilmalari va boshqa madaniy boyliklar shular jumlasidandir.

Shu yilda, ya`ni 1996-yil 1-sentabrda Toshkentda Osiyoda noyob va yagona bo`lgan Olimpya shon-shuhrat muzeyi ochildi.Bu muzey o`zbekistonlik sportchilarning turli nufuzli xalqaro musobaqalarda qo`lga kiritgan muvaffaqiyatlarini, medallarini namoyish etish bilangina cheklanib qolmay, balki mamlakatimizda sport harakatini rivojlantirish markazi va yana bir muhim omil- yosh sport ixlosmandlari uchun ibrat maktabi, motivatsiya manbai sifatida ham xizmat qilmoqda. Bu kabi muzeylar respublikamizda ko`plab tashkil etildi.

Chunonchi, 1992-yil may oyida gullar shahri Namanganda otashqalb shoir Boborahim Mashrab muzeyi ochildi. 1992-yil sentabrda qadim Xorazm viloyatining Xonqa tumanida milliy mumtoz musiqa va kularning mashhur ijrochisi, Xorazm hofizlar maktabining asoschisi, sana`timiz darg`asi Xojixon Boltaboyev nomidagi o`ziga xos, noyob va betakror durdonalardan tashkil topgan muzey ochildi. Ko`hna Uchganchda ham shu oyda qadimgi Xorazm amaliy san`ati va tarixi muzeyi ochildi.Bu muzey ekspozitsiyalarini uch mingga yaqin turli eksponatlar-tarixiy hujjatlar, qadimgi xorazmliklar foydalangan uy-joy anjomlari, tikuvchilik va gilam mahsulotlari, turli osori-atiqalar, mehnat qurollari tashkil etadi.

1992-yil noyabr oyida Buxoroda O`zbekiston tarixida ilk marotaba temirchilik muzeyi ochildi. 1992-yil dekabrda Samarqand viloyatining Oqtosh shahrida ochilgan xalq baxshisi Islom shoir Nazar o`g`lining uy-muzeyi birinchi mehmonlarni qabul qildi.

Bugungi kunda respublikaning kattayu-kichik shaharlarida, tumanlarida xalqning shonli va sharafli, tarixiy-madaniy durdonalarini namoyish qiluvchi 510 dan ortiq muzey ishlab turibdi. Jamiyatni ma`naviy-axloqiy kamolga yrtkazishda, keng aholi ommasini ayniqsa yosh avlodni ma`rifatli qilishda muzeylarning tutgan o`rni va ahamiyati beqiyosdir. Qariyb, 29 yil muqaddam mustaqillikni qo`lga kiritgan xalqimiz o`zanini topgan daryo misoli ruhan to`lqinlanib, istiqlol yo`lidan olg`a intilmoqda. Qisqa vaqt ichida e`tirofli va e`tiborli, faxr bilan maqtalgudek marralarni bosib o`tib, tarixiy o`zligini anglagan hur O`zbekistonga bugun jahonning eng rivojlangan davlatlari havas ko`zi bilan boqmoqda. O`zbekistonda yashayotgan har bir o`zbek bugun turmushidan rozi, ko`zlari baxt va shukronalikdan porlamoqda.

Ma`lumki, diyorimiz jahon tarixi va svilizatsiyasining eng qadimiy maskanlari va markazlaridan biridir. Respublika hududida saqlanib qolgan yuzlab bebaho arxeologik me`moray va yozma yodgorlik, amaliy san`at va xalq ijodiyoti namunalari- bularning barchasi xalqimizning boy va betakror tarixiy ma`naviy merosidir.Ana shu merosni o`rganish, uni avaylab asrash va kelajak avlodlarga beshikast va betalofat yetkazish biz zamondoshlarning, kejak avlod vakillarining sharafli va ayni damda mas`uliyatli burchimiz va vazifamizdir. “O`zbek xalqi yaratgan va milliy bisotimiz bo`lib qolgan noyob tarixiy yodgorliklarni saqlab qolish va ta`mirlash-ma`naviy dasturimizning juda muhim qismidir.Ushbu milliy boylik bizga ajdodlarimizdan meros bo`lib qolgan, binobarin, biz uni ko`z qorachig`idek avaylab asrashimiz va kelajak avlodlarga topshirishimiz lozim”, - degan edi I.A.Karimov Oliy Majlisning birinchi sessiyasida so`zlagasn nutqida. Darhaqiqat, Respublikamizda 7 mingdan ko`proq yodgorlik, shu jumladan, 2500 me`moray obida, 2700 dan ziyod arxeologiya yodgorligi, 1800 dan ko`proq monumental san`at asari davlat muhofazasiga olingan.Hozirgi vaqtda O`zbekistonning barcha mintaqalarida, hatto olis tumanlarida ayrim yodgorliklarni nurashdan saqlash va ta`mirlashdan ilmiy tadqiqot ishlari asosida butun-butun me`moriy majmualarni va ko`hna shaharlarning tarixiy markazlarini qayta tiklashga o`tildi

O`zbekiston Fanlar akademiyasining Alisher Navoiy nomidagi Davlat Adabiyot muzeyi 1968-yili Alisher Navoiyning 525 yillik yubileyi munosabati bilan tashkil etilgan bo`lib, u shu choqqacha xalqimizning ko`p asrlik adabiy merosini jamlash, uni muhofaza qilish, targ`ib qilish va tatbiq qilishda kata ishlarni amalga oshirib kelmoqda.Muzeyda qo`lyozmalar bilan birgalikda eski bosma kitoblar fondi ham muntazam boyib borayapti.Bu fondda mingdan ortiq nomdagi qo`lyozma va toshbosma asarlar mavjud bo`lib, ular orasida o`zbek klassik shoirlarining nodir va qadimiy asarlari ham unosib o`rin egallab kelmoqda.Adabiyot muzeyida 65000 hujjatlarni o`z ichiga olgan XIV- asrdan to hozirgi kungacha bo`lgan davrni qamrab oluvchi O`zbekiston Yozuvchilari arxivi ham muzeyning faxri hisoblanadi. So`nggi yillarda muzey hayotida shonli, muvaffaqiyatli odimlar bo`ldi deyish mumkin.Adabiyot muzeyi o`zining ilmiy va ilmiy-tashkiliy faoliyatidan kelib chiqib qator xorijiy mamlakatlar muzeylari, kutubxona va ilmiy muassasalar bilan yaqindan aloqa o`rnatib o`zaro hamkorlik doirasida faoliyatini olib bormoqda.Muzey

olimlari Yaponiya, Januniy Koreya, Turkiyada o`tkazilgan qator ilmiy anjumanlarda ma`ruzalar va ko`rgazmalar bilan ishtirok etib kelmoqdalar.Ayniqsa, qo`lyozma va arxiv hujjatlarini birlamchi ishlovdan o`tkazish, ularni ilmiy tavsiflarini amalga oshirish va katalog sifatida nashr qildirib ularni ekspozitsiyada namoyish qilish va ilmiy muomalaga kiritish ishlariga alohida e`tibor berib kelmoqda.Hozirgi kunga qadar muzey fondidagi qo`lyozmalar va yozuvchilar arxividan o`nlab fondlarni ilmiy tavsifi chop etildi.Shular bilan bir qatorda muzey olimlari o`nlab monografiyalar, risolalar va ilmiy-tanqidit matnlar nashri orqali o`zbek adabiyotining kam o`rganilgan sohalarini yorituvchi ilmiy ishlarining natijalarini e`lon qilib kelmoqdalar.

Respublika Qurolli Kuchlari Markaziy muzeyi o`z faoliyatini 1965-yilda boshlagan. Muzeyning ekspozitsiyalari dastlab hozirgi Markaziy ofitserlar saroyi binosiga joylashtirilgan edi. 1975-yilga kelib esa, muzeyning maxsus binosi 3 ming kvadrat metrni tsshkil etgan muzey binosida 7 mingdan ziyod tarixiy eksponatlar joylsshtirilgan.1997-yilda muzey ekspozitsiyalari tubdan yangilanib, qayta ta`mirlandi.Uch qavatli binoning birinchi qavati ekspozitsiyalari “Temuriylar davridagi harbiy san`at” mavzuini yoritishga bag`ishlangan bo`lib, ularda buyuk davlat arbobi, mohir sarkarda sifatida shuhrat qozongan Amir Temur davlati qo`shinining tuzilishi va boshqarilishini mujassamlashtirilgan voqealar aks ettirilgan.Jumladan, “Amir Temur jangivar otida” portreti [muallif R.Ziyodullayev], Amir ulamolarining chortug`i maketi [ asl o`lchamidan 40 marta kichraytirilgan ] va bayrog`I, “Qudratimizga shubhangiz bo`lsa, yodgorliklarimizga boqing” ekspozitsiyasini hamda Dor us-saodat maqbarasi, Registon maydoni, Oqsaroy, Go`ri Amir, Zangiota, Ahmad Yassaviy maqbaralari tasvirlari, shuningdek, Amir Temur hayoti va faoliyatiga oid adabiyot va qo`llanmalar o`rin olib, kishi e`tiborini o`ziga jalb etadi. Shuningdek, ko`rgazmada arab yozuvi va lotin alifbosida yozilgan “Temur tuzuklari” asaridan olingan pand-nasihatlar, Amir Temur davlati xaritasi, vitrinaga qo`yilgan dubulg`a, suvdon, qilich, gurzi, cho`qmorlar ham mavjud.

Vatanimizning milliy xavfsizligini, uning davlat suvereniteti va hududiy yaxlitligini, aholi tinchligini saqlashning ishonchli kafolati bo`lgan O`zbekistonQurolli Kuchlarining kundalik faoliyatiga bag`ishlangan uchinchi qavat ekspozitsiyalari “Mustaqil O`zbekiston himoyasida” deb nomlanadi.Ularda mustaqillik yillari mobaynida bu soha aniq yo`nalish asosida isloh qilinganligi o`z aksini topgan.Bu O`zbekiston Respublikasining xaritasi, milliy boyliklarimiz-tabiiy resurslar, “:Mudofaa to`g`risida” gi Qonun va “Mudofaa doktrinasi” dan ko`chirilgan matnlar, Harbiy Qasamyod, “Harbiy qism Jangovar Bayrog`I to`g`risida” gi Nizom, O`zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Jangovar Bayrog`I to`g`risida” gi Nizom, O`zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Jangovar Bayrog`I, Oliy harbiy mukofot-Jaloliddin Manguberdi ordenining tasviri va uning mazmuni, zamonaviy armiyamiz hayotidan olingan lavhalar, qo`shin turlari va harbiy okruglar milliy ofitser kadrlarni tayyorlash masalalariga oid ekspozitsiyalar orqali ochib berilgan.Xalqaro harbiy matbuot, madaniy ishlar va sport ekspozitsiyalari ham shunga xizmat qiladi.

So`nggi yillarda Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev Farmonlariga binoan muzeyda fundamental ilmiy muammolarni tadqiq qilish to`g`ri yo`lga qo`yilgan bo`lib, bu borada olib borilayotgan islohotlar o`z samarasini berib kelmoqda.

Muxtasar qilib aytganda, O`zgarayotgan O`zbekistondagi barcha sohalar rivojida qisqa vaqt ichida ko`plab yutuq va muvaffaqiyatlarni sanashimiz mumkinligi barchamiz uchun birdek quvonarli holat. Muzeylar rivoji ham shiddat bilan rivojlanayotgan zamonga hamohang tarzda taraqqiyotning supalari tomon dadil ildamlamoqda. Bu sharafli va mas`uliyatli yo`lda muzeylar siz-u bizning yordamimizga muhtoj.Chunki hozirda biz bahramand bo`layotgan tarixning betakror xazinalari-yu, qadimiy boyliklarida kelajak avlodning ham haqqi bor. Uni benuqson va beshikast, sayqallangan holatda avlodlarga yetkazish sharafli burch va vazifamizdir.Bu shonli

yo`lda bir yoqadan bosh chiqarib kamarbasta bo`laylik.Bu tarix Meniki, bu tarix Sizniki, bu tarix- O`zimizniki va bu tarix-Hammamiznikidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:**

1.O`zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimovning Toshkent shahrida Temuriylar tarixi davlat muzeyining ochilish marosimida so`zlagan nutqi, 1996, 18-oktabr.
2. Mirziyoyev Sh.M.Konstitutsiya-erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir.Xalq so`zi. 2017 yil 8-dekabr.
3.Sodiqova N Madaniy yodgorliklar xazinasi.-Toshkent:Fan,1991
4.www.pedagog.uz
5.www.muzey.uz